

**ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING
TARJIMASI: MUAMMOLAR, USULLAR VA MADANIY TAFOVUTLAR****Zamira Z.Tojiyeva**

*O‘qituvchi. Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrası O‘zbekiston davlat
jahon tillari universiteti O‘zbekiston*

zamira.tojiyeva@mail.ru

Najimova Ozoda Baxrom qizi

*Talaba . Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrası O‘zbekiston davlat
jahon tillari universiteti O‘zbekiston*

ozodanajimova92@gmail.com

ANNOTATSIYA Mustaqillikka erishilgach, yurtimizda islomshunoslik, dinshunoslik sohalariga, shuningdek, arab tili va boshqa sharq tillari, sharq xalqlari madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchayib, ushbu yo‘nalishlarda bir qancha tadqiqot ishlari olib borildi. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning jadallashuvi va takomillashuviga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlar ham turtki bo‘ldi. Bu sohada qator qonun hujjatlari va hukumat qarorlarini qabul qilinganligi fikrimizning yaqqol isbotidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyayevning 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-4680) qarorini qabul qilganlari yurtimizdagi sharq tillariga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirdi.¹

Quyida maqolada arab tilidagi frazeologizmlarning o‘zbek tiliga tarjimasiga doir holatlarni ko‘rib chiqamiz.

Arab tili qadimiy va ko‘p sonli xalqning tili ekanligi barchaga ayon. Ekvivalenti bo‘lmagan frazeologik birliklarini tarjima qilishda biz kuzatish, tavsifiy tarjima, leksik tarjima va qo‘shma tarjima usullaridan foydalanamiz.

“Idiomatik kuzatishlar o‘zlashtirilgan til orqali chet tili prototiplarining (idiomatik birliklar) to‘liq yoki o‘zgartirilgan tuzilishi va ma‘nosi natijasida vujudga keladigan frazeologik birliklardir. Ekvivalenti mavjud bo‘lmagan frazeologik birliklarni tarjima qilishda, iborani boshqa tarjima turlaridan foydalanib tarjima qilish mumkin bo‘lmaganda yoki boshqa tilda bir xil ma‘noga ega frazeologik birlik mavjud bo‘lsa-yu, lekin undan foydalanish iboraning buzilishiga olib kelsa, tarjima jarayonida

¹ www.lex.uz

o‘z mazmunini yo‘qotadi. Bunday hollarda tarjimonda juda katta mahorat va tajriba talab qilinadi va tarjimon idiomatik kuzatish orqaligina bu muammoga yechim topa oladi.

Qo‘shma tarjima jarayonida esa asl frazeologik birlikning boshqa tildagi ma‘nosini to‘liq yetkazish va uni tarjima qilish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni taqdim etish muhimdir. Odatda, qo‘shma tarjimadan foydalanilganda frazeologik birlikni tushuntiruvchi tavsifiy tarjima berilishi maqsadga muvofiqdir.

Binobarin arab tilidagi frazeologik birliklarini o‘zbek tiliga tarjima qilayotganda kontekstni tahlil qila bilish, tarjima qilinayotgan xalqning tarixi, madaniyati, turmushi va urf-odatlarini chuqur o‘rganish, shuningdek frazeologik birlikni o‘z tiliga tarjima qila olish lozim.

R.A.Yusupov esa o‘zining tadqiqotlarida ekvivalenti bo‘lmagan frazeologik birliklarga: “Boshqa til modeli asosida ilgari noma‘lum bo‘lgan tushunchani belgilash” deb ta‘rif beradi.²

Shuningdek ularni ma‘no jihatidan guruhlari, tuzilishiga ko‘ra usullari va tarjima qilish usullari kabilarga qarab ham tadbiiq qilinadi. Ularni bilish iboraning asl mohiyatini tushunishda yordam beradi.

Frazeologik iboralarning ma‘no jihatidan quyidagi guruhlari farqlanadi:

- Idiomatik frazeologizmlar (Idiomalar): Bu guruhdagi iboralar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda mutlaqo boshqa ma‘no kasb etadi va ularning ma‘nosi butunlay o‘zgaradi. Masalan, “boshi osmonga yetdi” (juda xursand bo‘ldi), “qo‘li ochiq” (saxiy). Bunday iboralarning ma‘nosi komponent so‘zlarining ma‘nosidan kelib chiqmaydi.

- Semi-idiomatik: ayrim komponentlarning leksik ma‘nosi saqlanib qolgan, lekin ibora to‘liq ko‘chma ma‘noni anglatadigan birliklar. Bu turdagi iboralar tarkibidagi so‘zlardan biri o‘z ma‘nosini qisman yo‘qotgan bo‘ladi, lekin iboraning umumiy ma‘nosini taxmin qilish mumkin. Masalan, “so‘z bermoq” (va‘da bermoq), “e‘tibor bermoq” (diqqat qilmoq), “ko‘z tashlamoq” (bir oz qaramoq). Bu yerda “bermoq” fe‘li o‘zining “nimanidir birovga uzatmoq” ma‘nosini to‘liq saqlamaydi.

- Frazeologik qo‘shilmalar: Bu guruhga kiruvchi iboralar erkin so‘z birikmalariga juda o‘xshab ketadi, ammo ularning tarkibida bir so‘z o‘zining asl ma‘nosini qisman saqlagan holda barqaror birikma hosil qiladi. Masalan, “ochiq eshik” (doim mehmonlarga ochiq), “qattiq non” (eski, qotib qolgan non). Bu turdagi iboralarda komponentlarning ma‘nosi umumiy ma‘noga nisbatan yaqinroq bo‘ladi.

- Frazeologik ifodalar: Bu iboralar odatda aforizmlar, maqollar, hikmatli so‘zlar va qanotli iboralardan iborat bo‘ladi. Ular ko‘pincha o‘zgarishsiz ishlatiladi va ularning

² Yusupov R.A. Rus va tatar tillarining leksik va frazeologik vositalari. – Qozon: Tatar. – 255b

ma'nosi odatda komponent so'zlarning ma'nosidan aniq bo'ladi. Masalan, "Yetti o'lchab bir kes" (biror ishni boshlashdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish kerak), "Bilim – kuch" (bilimning qadr-qimmati).

Frazeologik iboralarining tuzilishiga ko'ra usullari quyidagicha tavsiflanadi:

- Sintaktik tuzilishga ko'ra:

So'z birikmalari shaklida: Aksariyat frazeologik iboralar so'z birikmalari shaklida bo'ladi (ot+fe'l, sifat+ot, ot+ot va boshqalar). Masalan, "qo'lga kiritmoq", "oq oltin", "jonidan o'tdi".

Gap shaklida: Ba'zi frazeologik iboralar gap shaklida bo'lib, tugallangan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Quloq sol, ey devona, bo'lmagaysan begona".

Qo'shma gap shaklida: Kamdan-kam hollarda frazeologik iboralar qo'shma gap shaklida ham uchraydi. Masalan, "Kimki mehnat qilsa, rohat ko'rar".

So'z turkumiga ko'ra:

Frazeologik iboralar asosan fe'l, ot, sifat, ravish frazeologik iboralariga bo'linadi. Bu ularning gapdagi vazifasini belgilaydi.

Fe'lli frazeologik iboralar: "Bosh og'ritmoq" (bezovta qilmoq), "ko'z yummoq" (e'tiborsiz qoldirmoq).

Sifat so'z turkumi bilan ifodalangan frazeologik iboralar: "Tili qisqa" (notiq bo'lmagan), "yuragi toza" (pokiza).

Ravish so'z turkumi bilan ifodalangan frazeologik iboralar: "Ko'z ochib yumguncha" (juda tez), "bir yo'la" (darhol).

Yuqorida biz frazeologiyani fan sifatida shakllanib, tilshunos olimlarning ushbu yo'nalishda olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari, frazeologik birliklarning tuzilishi, ma'nosi va tarjima qilish usullari haqida mulohaza yuritdik. Endi esa tilshunos olimlarning olib borgan tadqiqotlari asosida arab va o'zbek tillaridagi frazeologiyalarni tarjima qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklar ustida to'xtalib o'tamiz. Frazeologik birliklarni o'rganish jarayoni, ayniqsa ikki yoki undan ortiq til materiallarini qiyosiy tahlil qilish doirasida olib borilsa, muayyan lingvistik, madaniy va tarjimaviy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu o'rinda rus tilshunos olimi V.N.Kommisarov tomonidan berilgan tasnif asosida ishlab chiqilgan klassifikatsiyaga e'tiborimizni qaratamiz. O'zining ko'p yillik izlanishlari orqali bergan quyidagi izohi hali hamon o'zini oqlamoqda: "Ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu mukammal tarjimon dagani emas va albatta ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu o'sha tilga oid bo'lgan barcha sohasidagi matn va utqni nutqni to'liq mukammal tarjima qildi degani emas. Tarjimon nafaqat tilni mukammal egallay olgan balki o'sha xalqning yashash tarzi, madaniyati va urf-odatlarini mukammal egallay olishi shart."³ V.N.Kommisarovning tadqiqotlari va bergan fikrlari asosida frazeologik birliklarni

³ O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Samarqand: SamDU, 1999. – 80b.

tarjima qilishdagi muammolar o'rganilgan. Arab va o'zbek frazeologik tizimlarining strukturaviy va semantik o'ziga xosliklari ularni tadqiq etishda hamda tarjima jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi:

1. Semantik tafovutlar - Arab va o'zbek frazeologizmlarining ko'plab qismi semantik jihatdan bir-biriga mos kelmaydi. Ya'ni, ular bir xil voqelikni ifodalasa ham, ma'no soyasida farqlar mavjud. Masalan, o'zbek tilidagi "ko'z oldi qorong'ilashmoq" iborasi (keskin qo'rquv, vahima holati) arab tilida to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi, ammo unga yaqin ma'no "غَشِيَ عَلَيْهِ" (hushini yo'qotdi) tarzida ifodalanadi.⁴

2. Obrazlilikning turfa xususiyati - Frazeologizmlar ko'pincha milliy obrazlarga asoslanadi. Masalan, frazeologik iboralarda o'sha xalqning madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, ular hayotidagi muhim ashyolarga oid so'zlar keng qo'llaniladi. Arab tilida cho'l, quyosh, suv, devon (rasmiy idora) kabi tushunchalar obrazlilik markazida tursa, o'zbek tilida esa qishloq hayoti, inson a'zolari, hayvonot dunyosi obrazlariga tayaniladi. Masalan, arab tilidagi "يَبِيتُ عَلَى طَوِيَّةٍ" (och yotish) iborasi bevosita obrazli ifoda bo'lib, o'zbek tilida "qorni och yotmoq" sifatida izohlab beriladi, ammo bu ibora o'zbek tilida frazeologiya sifatida qabul qilinmaydi.

3. Madaniy-diniy asoslar - Arab tilida Qur'on va Hadis asosida shakllangan ko'plab frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda diniy yoki tarixiy kontekstni ham inobatga olish talab etiladi. Masalan, "يَدْخُلُ مِنْ أَبْوَابِ الْجَنَّةِ" (jannatning yetti eshigidan kiradi) iborasi o'zbek tilida diniy ma'noni tushunmaydigan auditoriya uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

4. Turg'unlik darajasidagi farqlar - ba'zi frazeologik birliklar o'zbek tilida keng qo'llanilib, arab tilida esa ular turg'un birikma shaklida emas balki leksik birlik sifatida mavjud bo'lib, turg'un ibora sifatida tan olinmaydi. Shu sababli, arab tilidagi ko'plab iboralarni frazeologik birlik sifatida tahlil qila olmaymiz. Ularni tarjima qilish jarayonida ham tarjimondan ehtiyotkor bo'lish talab etiladi.

5. Ekvivalent topishdagi murakkablik – tarjima qilayotganimizda o'zbek tilidagi ayrim iboralarga arab tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish qiyin. Masalan, "gap og'zidan chiqib ketdi" iborasi (tasodifan aytib qo'yish) arab tilida "تَقَوَّاهُ بِهٖ سَهْوًا" (uni bexos aytdi) tarzida ifodalanadi, ammo bu jumla frazeologik birlik emas, balki sintaktik ifodadir. Ayrim holatlarda frazeologik ibora oddiy so'z shaklida ba'zida oddiy so'z birikmasi yoki jumlaning tarjima qilinayotgan tilda ibora shaklida qo'llash tarjima mazmuniga ko'proq mos kelishi ham kuzatiladi.

6. Pragmatik va uslubiy farqlar – bir tilda mavjud ibora manbaa tilda norasmiy va tarjima qilinayotgan tilda rasmiy holatda qo'llanilishi ham mumkin. Masalan, arab va o'zbek tilida bir xil vaziyatni ifodalovchi frazeologizmlar nutq uslubi jihatidan har xil darajada rasmiy yoki norasmiy bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "boshi

⁴ <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/download/221/276/336>

berk ko‘cha” (umidsiz holat) iborasi norasmiy nutqda ishlatilsa, arab tilidagi mos ifoda “طَرِيقٌ مَسْدُودٌ” yozma nutq kontekstida ishlatiladi.⁵

Arab va o‘zbek frazeologiyasini o‘rganishda yuqoridagi muammolar ularning lingvistik tizimlaridagi tub farqlar bilan bog‘liq bo‘lib, har ikki tilga oid frazeologik birliklarning strukturaviy, semantik va funksional tahlilini talab etadi. Bu qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun tadqiqotchidan chuqur tilshunoslik bilimlari bilan birga, madaniyatshunoslik, diniy manbalarni tahlil qilish ko‘nikmasi ham talab etiladi. Frazeologik birliklar tarjimasida nafaqat lug‘aviy muvofiqlikni, balki ularning kontekstual va madaniy ahamiyatini ham hisobga olishni taqozo etadi.

Xulosa

O‘rganilgan adabiyotlar va tilshunos olimlarning izlanishlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, frazeologizmlar alohida shakllangan til birliklari hisoblanadi va ular oddiy so‘zlardan deyarli farq qilmaydi. Iboralar gapda alohida ma‘no ifodalovchi, alohida gap bo‘lagi sifatida keluvchi oddiy so‘zlar bilan tengdir. Shu sababli tarjimon ularni erkin birikma sifatida qabul qiladi va so‘z sifatida tarjima qiladi. Tarjima qilingan hamma frazeologik birliklar ibora shaklida tarjima qilinishi kerak yoki, stilistik jihatdan asl nusxasiga yaqinlashtirilgan holatda ifodalanishi kerak. Ya‘ni, frazeologizmlarning tarjimasida ularning ma‘nosini har doim frazeologizm orqali ifodalashga harakat qilish va bu jarayonda iboralarning obrazlilik xususiyati hisobga olish zarur. Iboraning milliy xususiyatini buzmaganda tarjima qilinayotgan tildagi iboraga ham huddi shu kabi milliylik bera olish kerak. Bu narsa tarjima qilinayotgan matn mazmunidagi o‘ziga xoslikni, bo‘yoqdorligini saqlab qolinishini va asarning o‘quvchi qalbiga aslidagidek yetib borishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘.Rahimov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2016 – 116 b
2. Soloduxo E.M. Frazeologiyalar nazariyasi. – Qozon.1989. – 265b.
3. “الفروق اللغوية” Al-Furooq ul-lughawiyya. Abu Hilal al-Askari. Arabic Language booksbylanguage_arabic; booksbylanguage. 2017.06.12.
4. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov Tarjima nazariyasi Tafakkur bo‘stoni: Toshkent – 2012. 154b.
5. www.lex.uz
6. www.uza.uz.
7. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/5355>

⁵ I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov Tarjima nazariyasi Tafakkur bo‘stoni: Toshkent – 2012. 154b.